SIRDARYO VILOYATI YANGIYER SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 28 - dekabr 292-9-132-Q/23 Yangier shahar hokimligi

Shahar hududida 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekistan Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keying o‘rinlarda Nizom) muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida, **qaror qilaman:**

1. Shahar hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Shaharda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha shahar komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari – bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari), shuningdek, ishlab chiqarilganiga o‘n bir yildan o‘n to‘rt yilgacha (o‘n to‘rtinchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) – ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga tegishli transport vositalari, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning "a" kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari), shuningdek, ishlab chiqarilganiga o‘n besh yil va undan ortiq bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning "a" kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) – bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi – shatakchi uchun belgilangan muddatlarda. Ishlab chiqarilganiga o‘n yilgacha (o‘ninchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (mazkur bandning "a" kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari), texnik ko‘rikdan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi. Shuningdek, jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari ro‘yxatdan o‘tkazilgan (vaqtincha ro‘yxatdan o‘tkazilgan) hududda yoki egalarining xohishiga ko‘ra eksterritoriallik tamoyili asosida boshqa hududlarda o‘tkazilishi mumkin.

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1 mart- 30 iyunda;

ikkinchi marta – 1 sentyabr- 31 oktyabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar – 31 dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish shahar komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikasiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar,

standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub’yektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi. Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Shahar hududidagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Ushbu qaror kuchga kirishi munosabati bilan shahar hokimining 2022-yil 30-dekabrdagi 295-9-132-Q/23-sonli “Shahar hududida 2023-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Shahar hokimining 2023-yil 6-dekabrdagi 276-9-132-Q/23-sonli qarori

shahar Adliya bo'limidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilmaganligi hamda ushbu qaror loyihasi jamoatchilik muhakamasi muddati yakunlanmasdan qabul qilinganligi sababli bekor qilinsin.

11. Mazkur qaror loyihasi tegishli tartibda huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun shahar Adliya bo'limiga yuborilsin.

12. Ushbu qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilinsin hamda e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

13. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimi o‘rinbosari F.Babaxanov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **O.Nosirov**

Yangier shahar hokimining
2023-yil 28-dekabrdagi
292-9-132-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Shaharda 2024 yil transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish muvofiqlashtirish bo‘yicha shahar ishchi guruhi

TARKIBI

B.Gaffarov	Shahar IIB YHXB boshlig‘i, **ishchi guruhi raisi**
A.Turdiyev	Shahar IIB YHXB mutaxassisi, **ishchi guruhi kotibi**

Ishchi guruh a’zolari

Q.Usmonaliyev	Transport boshqarmasining shahardagi inspektori
J.Ropiyev	Shahar Favqulodda vaziyatlar bo`limi boshlig‘i
A.Bekmatov	Shahar Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i
A.Mamanazarov	Shahar hokimligi bosh mutaxassisi
A.Urolov	Shahar sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i
Sh.O‘tayev	Shahar mudofaa bo‘limi boshlig‘i

Yangier shahar hokimining
2023-yil 28-dekabrdagi
292-9-132-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Yangiyer shahar hududida joylashgan avtokorxona, tashkilot,

xo‘jalik, xususiy firma va uyushmalardagi avtomototransport vositalarini 2024-yil uchun texnik ko‘rik o‘tkazish bo‘yicha

R E J A – J A D V A L I

№	Korxona va tashkilot xo‘jaliklar nomi	Texnik kurik o‘tkzish kunlari	Texnik kurik o‘tkazish vakti	Texnik kurik o‘tkaziladigan joy	Jami avto vositalar soni
1	2	3	4	5	6
1	Axmadbek trans Yangiyer MChJ	01.03.24	10-00 16-00	Avtoturargoh	9
2	Bobur trans MChJ	01.03. 24	10-00 16-00	Avtoturargoh	4
3	Xilola farm XK	02.03. 24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
4	Javoxir Yangiyer servis MChJ	02.03. 24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
5	**Jobs-Deklorant MChJ**	03.03. 24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
6	**Mega food xamkor MChJ**	03.03. 24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**2**
7	**Moxirshox-Shoxrux MChJ**	03.03. 24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**3**
8	Otabek-Og‘abek-Ozodbek XK	04.03. 24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	1
9	**Taxi saturn MChJ**	06.03. 24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**28**
10	**Yangiyer agro maxsulotlari**	06.03. 24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
11	**Yangiyer sharob savdo MChJ**	06.03. 24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
12	**Yangiyer spektr MChJ**	10.03. 24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
13	**Yangiyer temir beton maxsulotlari**	10.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
14	**Abdusamatbek nur savdo MChJ**	10.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**6**
15	**Ammiak va Karbomid zavodi**	11.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
16	**Azim ota Ishquvatov**	11.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
17	**Azizbek XF**	11.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
18	**Bobur shox-Temurbek Yangiyer**	11.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**6**

19	Bunyodkor MChJ	11.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**11**
20	Davr universal MChJ	13.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
21	Dream Allanse MChJ	13.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
22	Elyor Yangiyer MChJ	15.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
23	Foriza-Shox-Aziz MChJ	15.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
24	**Genius Yangiyer MChJ**	16.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
25	**G‘iyosjon trans MChJ**	16.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
26	**Golden Standart premium**	16.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
27	**Godronaladka konstruktor MChJ**	17.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**2**
28	**Grand avto Yangiyer MChJ**	17.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**4**
29	Imkon avto logistik U/K	18.03.24	10-00 16-00	Avtoturargoh	4
30	Jamshid farm Yangiyer MChJ	20.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	1
31	Javoxir-Madinabonu MChJ	20.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	1
32	Iqbol-Fayz Yangiyer MChJ	20.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	1
33	Jiyda OK	20.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	1
34	Jaxongir Yan Avto MChJ	20.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	1
35	Komplekt remont elektranoladka	21.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	1
36	Malik yan avto MChJ	21.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	1
37	**Karmenta yan teks QK**	22.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
38	**Mega leader MChJ**	23.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**6**
39	**Murod yan trans MChJ**	23.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
40	**Nur gaz Yangiyer MChJ**	27.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
41	**Mirza grill servis MChJ**	27.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
42	**Mexr savdo servis plus XK**	27.03.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
43	**Olim Yangiyer XK**	02.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
44	**Omad fayz qurilish servis MChJ**	02.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**10**
45	**Osiyo mezoni yan MChJ**	02.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**

46	**Plast romsar MChJ**	06.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**9**
47	**Polimer Binokor MChJ**	06.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**3**
48	**Samandar stom MChJ**	07.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
49	**Sarvar yan autoservis MChJ**	07.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**2**
50	**Shaxri art MChJ**	07.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
51	**Shaxri art MChJ**	08.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
52	**Shah yan savdo servis XK**	08.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
53	**Shah yan trans servis MChJ**	11.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**4**
54	Shah yan trans MChJ	11.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**2**
55	Sherzod-Shoxrux-Shaxboz MChJ	17.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
56	Sirdaryo elektr montaj MChJ	20.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
57	Sirdaryo qurilish montaj boshqarmasi MChJ	21.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
58	Sirdaryo ta’mirlash tiklash xizmati DUK	22.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
59	Sirdaryo viloyati Sanitariya Epidemiologiya osoyishtaligi	22.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**2**
60	Sirdaryo suv qurilish MChJ	22.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
61	Siroj trans MChJ	22.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
62	Standart stone MChJ	25.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**2**
63	Temur-Muxammad-Xamkor MChJ	25.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**2**
64	Toshkent kimyo texnalogiya instituti Yangiyer filliali	25.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**2**
65	Toza Hudud DUK	25.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**4**
66	Trans imkon servisMChJ	**28.04.24**	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	10
67	Ulug‘bek Yangiyer qurilish MChJ	28.04.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**7**
68	Vatanparvar tashkiloti Yangiyer shahar O‘STK	01.05.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**9**
69	Xovos tuman yo‘llardan foydalanish UK	01.05.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**20**
70	Yangiyer shahar hokimligi	02.05.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**4**
71	Yangiyer shahar prokuraturasi	02.05.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**2**

72	Obodonlashtirish boshqarmasi	06.05.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**4**
73	Moliya bo‘limi	06.05.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
74	Yangiyer shahar tibbiyot birlashmasi	08.05.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**3**
75	Gaz filliali	08.05.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
76	Yangiyer shahar soliq inspeksiyasi	08.05.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
77	Yangiyer shahar mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi	10.05.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
78	Yangiyer baliq MChJ	10.05.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**6**
79	**Yangiyer vet laborotor**	12.05.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
80	Yangiyer bosmaxonasi	**12.05.24**	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	1
81	Shahar savdo MChJ	**12.05.24**	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	1
82	Sir vil Silga qarshi kurashish dispanseri	**13.05.24**	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	1
83	OOO Atp-124	**15.05.24**	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	1
84	**OOO Avto life**	15.05.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
85	**OOO Janubiy mirzacho‘l kanalidan foydalanish**	19.05.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**11**
86	**Yangiyer shahar xalq ta’limi bo‘limi**	04.06.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
87	**Qishloq qurilish banq Yangiyer fliali**	04.06.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**2**
88	**Xalq banki Yangiyer filliali**	04.06.24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
89	**Mir metall MChJ**	05.06. 24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**2**
90	**MIB Yangiyer filiali**	05.06. 24	**10-00 16-00**	Avtoturargoh	**1**
	JAMI:				**261**